



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI VA UNI TO'G'RI HISOBGA OLISH

Tilovbekova Aziza
Boynazarov Shoxrux
Ziyodullayev Izzat
Norqulov Sulaymon
Guliston davlat universiteti talabalari

Turayeva Gulizahro
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15378882>

***Annotatsiya.** Maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishning iqtisodiy ahamiyati va uning boshqaruv usullari tahlil qilinadi, bu muammo zamonaviy moliyaviy tahlil olimlar tomonidan eng ko'p muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir, bu o'z o'rnida korxonaning iqtisodiy rivojlanishiga imkon beradi.*

***Kalit so'zlar:** xarajatlarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish, xarajatlarni kamaytirish yo'llari, xarajatlar tahlili, xarajatlarning nazorat qilish jarayonlari.*

***Аннотация.** В статье анализируется экономическое значение снижения себестоимости продукции и методы управления ею, данная проблема является одной из самых обсуждаемых тем современными учеными финансового анализа, что в свою очередь позволяет обеспечить экономическое развитие предприятия.*

***Ключевые слова:** управление затратами, снижение затрат, пути снижения затрат, анализ затрат, процессы контроля затрат.*

***Annotation.** The article analyzes the economic significance of reducing production costs and methods of its management, this problem is one of the most discussed topics by modern financial analysis scientists, which in turn allows for the economic development of the enterprise.*

***Key words:** cost management, cost reduction, ways to reduce costs, cost analysis, cost control processes.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir tadbirkor yoki korxonada yuqori foyda olish va uni ko'paytirishni maqsad qiladi. Uning oladigan foyda miqdori esa ishlab chiqargan mahsuloti yoki ko'rsatayotgan xizmatining hajmiga, sifatiga, tannarxiga va baholar darajasiga bog'liq bo'ladi. Korxonalarining bozorga mahsulot yetkazib berib, foyda olishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-harajatlar darajasi hisoblanadi. Har qanday tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqozo qilib, ular ham ma'lum narxga ega bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida eksport salohiyatini yuksaltirish va milliy iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish ham ko'p jihatdan tejamkorlikka erishish, hamda mahsulot va xizmatlar tannarxini pasaytirishga bog'liq.



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Shunga ko'ra, prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2019-yilning 12-martida Nurota tumanidagi "Marmarobod" korxonasida tog' jinslaridan mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishar ekan, quyidagi fikrini alohida ta'kidlab o'tdi: "Mahsulot tannarxini kamaytirish orqali jahon bozoriga chiqish kerak".

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, resurslarni tejash mahsulot birligiga ketayotgan xarajatlarning pasayishi, resurslardan foydalanish darajasining ijobiy tomonga o'sishi sifatida aniqlanadi. Nisbiy tejamkorlik tushunchasi ostida jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari nisbatan barqaror bo'lgan sharoitda ishlab chiqarishning foydali natijalari, ya'ni qiymat hajmining o'sishini ta'minlash jarayonini tushunish zarur. Shuning uchun resurslar tejamkorligi muammosining hal qilinishi iqtisodiyotning samarali rivojlanishi uchun juda muhimdir. Shuning uchun har bir korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha o'z strategiyasiga ega bo'lishi zarur.

1-jadval

Korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish strategiya tarkibi

Xarajatlarini kamaytirish strategisi	Strategiya mazmuni
Ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish. 2. Zaxiralardan foydalanishni takomillashtirish, yangi turdagi xom ashyo va materiallardan foydalanish. 3. Mahsulotlarning dizayni va texnik xususiyatlarining o'zgarishi. 4. Ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarning mahsulot narxiga ta'sirini tahlil qilish.
Ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilish	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish. 2. Asosiy vositalardan foydalanishni takomillashtirish. 3. Moddiy-texnika ta'minotini yaxshilash. 4. Transport xarajatlarini kamaytirish.

Ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni shakllantirish jarayoniga ta'sir qilishning eng samarali usullaridan yana biri moliyaviy javobgarlik markazlarini tashkil etish asosida korxonaning xarajatlari va daromadlarini boshqarishdir.

XULOSA

Shunday qilib, xarajatlarni rejalashtirish, xarajatlarni boshqarish tizimining muhim elementi bo'lib, keng qamrovli bo'lishi va korxonaning resurslari qayerda, qachon va qanday hajmda sarflanishini aniqlash imkonini beradi.



«XALQARO LOYIHALAR VA TA'LIM DASTURLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR»

mavzusidagi 2-sonli ko'ptarmoqli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi



Shuni ham ta'kidlash joizki, tashkilotning o'ziga xos xususiyatlarini va kompleks yondashuvni hisobga olgan holda xarajatlarni boshqarish tizimidan foydalanish korxonada faoliyatining yuqori iqtisodiy natijalariga erishishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'.Berdiyev, J.Urazmatov&U.Chorshanboyev "Boshqaruv hisobi" Darslik. Guliston 2025.
2. A.Muxametov, G'.Berdiyev, G.Turayeva. "Boshqaruv hisobi" o'quv qo'llanma. Guliston 2024.
3. Тураева, Г. К. (2024). Актуальность обеспечения стабильности производства зерна в национальной экономике. Экономика и социум, (2-1 (117)), 1387-1394.
4. Turayeva, G., Mullajonov, B., Qurbonbekov, R., To'raqulov, S., Mamadaliyev, U., & Fozilov, S. (2023). Vuxgalteriya hisobining usullari va tamoyillari. Наука и технология в современном мире, 2(14), 53-55.
5. Gulizahro, T., Shohzodbek, S., Nodirjon, I., Nasiba, R., & Yulduz, X. J. (2023). The Role and Importance of Industry in the Fight against Poverty in Today's Economy.
6. Gulizahro, T. (2023). The importance of developing the exchange mechanism and online trade in the E-commerce system (in the example of grain trade). Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (2), 14-20.
7. Qaynarovich, C. U., Djo'Rayevich, Z. A., & Lobar, M. (2024). Ishlab chiqarish sohasida xarajatlari va mahsulot tannarxini kalkulyatsiyalash. Eurasian Journal of Technology and Innovation, 2(1-1), 76-81.
8. Zaripov, A., Abduvoitova, N., & Ravufov, B. (2024). Theoretical foundations of management of the reproductive process in agriculture and investments in agriculture. Modern Science and Research, 3(2).
9. Азаматов, З. Т., Редкоречев, В. И., Абдурахманов, К. П., Кулагин, И. А., & Акбарова, Н. А. (2016). Лазерная интроскопия кремниевых пластин. In Голография. Наука и практика (pp. 405-408).
10. Муминов, Р. А., Азаматов, З. Т., Акбарова, Н. А., Тукфатуллин, О. Ф., & Хусаинов, И. А. (2014). Влияние голографических покрытий на эффективность кремниевых фотопреобразователей. Международный журнал Гелиотехника, (3), 6-8.
11. Azamatov, Z. T., Akbarova, N. A., Kulagin, I. Y. A., Gaponov, V. E., Redkorechev, V. I., & Isayev, A. M. (2017). Digital holographic interferometry in physical nanomeasurements. Наносистемы: физика, химия, математика, 8(1), 79-84.
12. Sharipov, K., Abdullaeva, S., Khalilov, S., & Xadjibayev, A. (2025). Analysis of the effectiveness of hydrocarbon vapor condensation. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1287-1291.